

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta'lim agentligi

_____ hokimligi maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

_____ maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi

___-maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyachisi

_____ning "Ilk qadamlar o'quv dasturi asosida

"Yozgi o'yinlar"

muvaznosida tashkillangan

FAOLLIYAT ISHLANMASI

(Iyul oyining 1-haftasi)



*v**eb-saytimiz: Zokirjon.com***
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan
+99890-530-88-18 nomerga murojaat
qilishingiz jek456 izlab telegramga yozishingiz
yoki shu nomerdagi telegram orqali
bog‘lanishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi
Kichik guruhlariga iyul oyi 1-hafta “Yozgi
o‘yinlar” mavzusida markazlar bo‘yicha
tayyorlangan faoliyat ishlanmani to‘liq holda
olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 5 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@maktabgacha_tt

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Nabiyev Zokirjon plastik egasi



DIQQAT!!!

Sizga bu OMONAT qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

Guruh: Kichik guruhlar uchun

Oy mavzusi: QUVNOQ YOZ

Hafta mavzusi: Yozgi o`yinlar

Faoliyatning maqsadi:

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilarni she'rning mazmunini tushunishga o'rgatish, yoz fasli haqidagi bilimlarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: bolalarni tabiatni sevishga, asrashga va uning muhimligini qadrlashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: kichikintoylarning yoz fasli va tabiatida mavjud tasavvurlarini kengaytirish. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka o'rgatish.

Faoliyat uslublari: aqliy hujum, kichik guruhda ishlash, "Baliq ovi", "Boshqaruvchini top" o'yinlari.

Faoliyat jihozi: rangli qog'ozlar, mavzu mavzuga oid rasmlar, akvarium, markazlarda ishlash uchun zarur materiallar.

Faoliyatning borishi:

Tashkiliy qism: salomlashish marosimi (ingliz tilida ham).

TARBIYACHI: – Bolalar bilan salomlashib olamiz. Buni qo'llarimizdan boshlaymiz.

- Salom mening qo'llarim! (qarsak)
- Hello, my hands!
- Salom mening oyoqlarim! (tap-tap)
- Hello, my feet!
- Salom mening yuzlarim! (oh-oh)
- Hello, my faces!
- Salom mening tishlarim! (tars-tars)
- Hello, my teeth!
- Salom mening burunlarim! (bum-bum)
- Hello, my noses!
- Salom mening o'rtoqlarim!



– Hello, my friends!

(Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlab tepaga ko‘taradilar).

TARBIYACHI: – Bolajonlar, hozir men sizga topishmoq aytaman, javobini toping-chi?

Quyosh rosa qizdirar,

Cho‘milish tanga yoqar.

Qani toping bolalar,

Bu qaysi fasl bo‘lar?

BOLALAR: – Yoz.

TARBIYACHI: – Barakalla, bolajonlar, to‘g‘ri aytdingiz. Aqliy hujum.

TARBIYACHI: – Yoz fasli qaysi fasldan keyin keladi?

1-Bola: – Bahor faslidan keyin yoz fasli boshlanadi.

TARBIYACHI: — Qani ayting-chi, yozda qanday vaqtimizda qanday ichimliklar ichamiz?

2-Bola: — Suv, meva sharbatlari, ayran.

TARBIYACHI: — Shirintoylari qanday joylarda cho‘milasizlar?

3-BOLA: — Basseyn, ariqlarda.

TARBIYACHI: – Barakalla, hozir men sizlarga bolalar shoiri Shukur Sa‘dullaning “Yoz” she‘ri o‘qib beraman.

Keldi ko‘klam kabi so‘ngin,

Bizlar sevgan issiq yoz.

Ekin o‘sdi yerlarida,

Bug‘doy pishdi qirlarda.

Qip-qizardi olchalar,

Uzar yosh bolachalar.

Poliz to‘la bodiring,

Bog‘bon tez uzib bering.

Sabr qiling siz andak,

So‘yib beray handalak.

Quyosh ko‘kda nur sochar,



Yangi dunyolar ochar.
O'rik yetilib pishar,
Yerlarga to'p-to'p tushar.
Olma, anor, nok, bodom,
To'ymaydi yeb hech odam.
Yoz bo'yi bizda har xil,
Meva pishar xilma-xil.



She'rda yoz faslining issiq ekanligi, dalalarda bug'doy, polizlar bodring, bog'larda nok, olma, olcha, bodom kabi mevalar g'arq pishishi haqida ma'lumot beriladi.

Lug'at ishi:

Ko'klam — yashil degani, ekin — o't-o'simliklar o'sadigan joydagi ekin — ozgina deb tushuntiriladi.

“Baliq ovi” o'yini. O'yinning maqsadi bolalarni o'qishga qiziqishini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rnatish.

O'yin jihozlari: akvarium, magnitli qarmoq, baliq, baliqchilik avat va turli predmetlarni aks ettiruvchi rasmlar.

Bolalar navbat bilan rasmdagi narsalarni nomini aytib, (ingliz tilida ham) u haqda ma'lumot beradilar.

“Boshqaruvchini top”
tetiklashtiruvchi mashq

O'yin qoidasi. Bolalar doira ichida turadilar. Ulardan biri tashqariga chiqadi. Qolgan bolalar doira ichida boshqaruvchi tayinlanadi, boshqaruvchi bir nechta bolani bajartirib turadi. Shundan so'ng tashqariga chiqqan bola chaqirib doira ichiga harakatlarni kuzatib, o'yinni kim boshqarayotganligini topishi kerak. Agar topsa, boshqaruvchi tashqariga chiqadi, yangi boshqaruvchi tayinlanadi, topolmasa jarima belgilanadi. Jarima olgan bola biror o'yin yoki she'r aytib berishi kerak.

TARBIYACHI: – Bolalar, sizlardan o'zingiz xohlagan markazlarga borib o'tirishingizni so'rayman. Pazandachilik markazida yoz faslida yaxshi ko'rib iste'mol qiladigan ayron tayyorlanib, unga pomidor, bodring qo'shiladi. San'at markazida yozgi mevalarni turli usullarda: sham, ip,

“Rangin kaftchalar” texnologiyasi yordamida chizish. Qurilish markazida cho‘milish havzasi maketini yasash taklif etiladi. Har bir markaz o‘z taqdimotini o‘tkazadi. Shundan so‘ng kichkintoylar bilimini mustahkamlash uchun savollar beriladi.

1. Yozda qaysi mevalar pishadi?
2. Poliz ekinlaridan qaysilarini bilasiz?
3. Ko‘klam deganda nimani tushunasiz?
4. Andak so‘zining ma’nosini ayting?
5. Yozda bolalar qayerda cho‘miladilar?
6. Yozda qanday ichimliklar ichiladi?

Savollarga to‘g‘ri javob bergan bolalar rag‘batlantiriladi.



Qurish yasash va matematika

Mavzu: Bog‘chamiz yo‘lakchalari

Maqsad: bolalar asosiy qurish material (kubik, g‘ishtcha, turli xil legolar)larini farqlashni va nomini aytishni biladilar.

Kerakli jihozlar: namuna, kubiklar, g‘ishtchalar, legolar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Qurilish materiallarining nomini aytish.
3. Yo‘lakcha yasash.
4. Bolalarni rag‘batlantirish.

E‘tiborga molik jihati: jihozlardan o‘z o‘rnida va maqsadli foydalanish.

Til va nutq

Mavzu: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilinganidan so‘ng”.

Suhbat.

Maqsad: bolalar O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi haqida nimalar tasvirlanganligini mustaqil ayta oladilar.

Kerakli jihozlar: gerb tasviri, AKT Faoliyatning borishi:

1. Gerb tasvirini o‘rganish.
2. Gerbning nimalardan iboratligini aytish.
3. O‘zaro suhbatlashish.
4. AKT orqali mavzu asosidagi o‘yinlar tomosha qilish.

Qo‘shimcha qism: mavzuga mos she‘rlarni o‘qish taklif etiladi.



San'at markazi

Mavzu: Gulzordagi kapalaklar

Maqsad: bolalar tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar, chizish va bo'yash malakalarini boyitadilar.

Kerakli jihozlar: namuna, oq qog'oz, rangli qalamlar.

Faoliyatning borishi:

1. Namuna bilan tanishish.
2. Kerakli jihozlarni tanlab olish.
3. Ishni rejalashtirish.
4. Ijodiy ishlash.
5. Bolalarni rag'batlantirish.

E'tiborga molik jihati: barmoqlar yordamida bo'yash texnologiyasi.

Syujetli- rolli o'yinlar va sahnalashtirish

Mavzu: Hayvonot bog'iga sayr

Maqsad: bolalar yovvoyi va uy hayvonlarini ajrata oladilar, ularga nisbatan mehrlari yanada oshadi, sahnalashtirishda mustaqil ravishda qatnasha oladilar.

Kerakli jihozlar: uy va yovvoyi hayvonlarning rasmlari va qoblari.

Fan va tabiat

Mavzu: Quvnoq favvora

Maqsad: bolalar suv xususiyatlarini o'rganadilar, tabiatga nisbatan mehrlari oshadi, suvni isrof qilmaslikni o'rganadilar.

Kerakli jihozlar: suv, maxsus idishlar, suv o'lchagich.

Faoliyatning borishi:

1. Favvora rasmini to'ng'iq chizish.
2. Suvning xususiyatlarini o'rganish (rangsiz, xidsiz, sovuq ekanligini tajribada o'rganish).
3. Bakalajkadan suvni favvora hosil qilish.

E'tiborga molik jihati: suvning boshqa suv havzalaridan farqini bilish.

Yakuniy qism: rag'batlantirish.

